

THE CONTENT AND ESSENCE OF THE CONCEPT OF “CRITICAL THINKING” IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Haydarova Kamola Ergashboy qizi

Teacher of the Bukhara Innovation University

Annotation. This article discusses the issues of developing critical thinking skills of future primary school teachers and improving their independent educational activities in the context of the credit-module system. External standards affecting the quality of education, modern pedagogical approaches and the possibilities of critical thinking technologies are analyzed. Methodological aspects of the formation of critical thinking skills in native language and reading literacy lessons are substantiated. The results of the study serve to develop the professional competence of future primary school teachers, their abilities to acquire independent knowledge and self-development.

Keywords: credit-module system, critical thinking, primary education, reading literacy, independent education, professional competence, quality of education, pedagogical technologies.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA “TANQIDIY FIKRLASH” TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA MOHIYATI

Haydarova Kamola Ergashboy qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ularning mustaqil ta'lim faoliyatini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi tashqi standartlar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va tanqidiy fikrlash texnologiyalarining imkoniyatlari tahlil qilingan. Ona tili va

o'qish savodxonligi darslarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning metodik jihatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini, mustaqil bilim olish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, mustaqil ta'lim, kasbiy kompetentlik, ta'lim sifati, pedagogik texnologiyalar.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim sifati oshirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ularni hayotiy muammolarni hal etishning ijodiy yo'llarini egallashga yo'naltirish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifati yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish"¹

Jahon amaliyotida elektron ta'lim muhitida o'quv jarayonini amalga oshirishni joriy etish bosqichiga oid pedagogic modellarni ishlab chiqish, electron ta'lim muhitida o'qishning psixologik-pedagogik xossalari aniqlashtirish, ta'lim jarayonida optimal o'quv variantlarini tanlash amalga oshirishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qartilmoqda. jumladan balaviriat bosqichi Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini electron ta'lim muhiti sharoitida kasbiy o'qitishda zamonaviy yondoshuvlar asosida takomillashtirish oliy ta'lim sifati yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil hisoblanadi.

Respublikamizda ta'lim jarayonini modernizatsiyalash maqsadida xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari, qo'shma fakultetlar va ta'lim dasturlari amalda joriy qilindi."Uzluksiz ta'limni yanada takomillashtirish, mehnat bozorining

¹ "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktabr

zamonaviy ehtiyojlasrga mos malakali kadrlarini tayyorlash siyosatini davom ettirish” va “ta’lim va o’qish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish”²

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida umumiy o’rta ta’limning sifat va samaradorligini oshirish, nazariy-metodologik jihatlarini rivojlantirish, talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish modelini takomillashtirish, talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan o’quv vaziyatlarining didaktik-pedagogik imkoniyatlari bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda pedagogika fani talabalarning bilim olish ko’nikmalarini oshirish, bir jamoa bo’lib qaror qabul qilishda ishtirok yetish, mantiqiy dalil va isbotlar bilan ishlash muammosini dolzarblashtirmoqda. Bundan oldin o’tkazilgan tadqiqot natijalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish sharti bilan talaba "to’liq bilim" olishi mumkinligi ye’tirof yetilgan (V. Zinchenko, I. Saviskiy, A. Tyukov, V. Rozin). Shuning uchun ta’lim berish jarayonini diqqatni axborotlashtirishdan semantik qidiruv mashg’ulotlariga o’tkazish kerak. Buning uchun o’quv jarayoniga bo’lgan yondashuvlarni o’zgartirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirishning yanada samarali usullarini izlash, sodir bo’layotgan narsalarning sabablari va ma’nolarini baholash talab yetiladi.

Tadqiqotda “fikrlash”, “tafakkur”, “tanqidiy fikrlash” tushunchalari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi. Fikrlash tushunchasining mohiyati bo’yicha qator izlanishlar olib borilgan.

“Dayana Xalperi asarlarida kreativ va tanqidiy fikrlash “fikr yuritishning shunday ko’rinishini anglatadiki, u vazminlik, mantiq va maqsadga yo’naltirilganlik bilan ajralib turadi”, - deb yozadi.

² O’zbekiston respublikasi prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harkatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni//o’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to’plami.-Toshkent,2017.-b39.

Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templarning asarlarida quyidagilar ta'kidlanadi: "Odam kreativ va tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g'oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini ham e'tiborga oladi. Bunda odam bu g'oyalarni dastlab ma'lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo'shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o'z nuqtai-nazarini ishlab chiqadi".

V. Zinchenko, I. Saviskiy, V. Rozinlar fikriga ko'ra, oliy ta'lim tizimi kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni hayotiy muammolarni hal etishning ijodiy yo'llarini egallashga yo'naltirish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga mo'ljallangan. Hozirgi vaqtda pedagogika fani bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning bilim olish ko'nikmalarini oshirish, bir jamoa bo'lib qaror qabul qilishda ishtirok etish, mantiqiy dalil va isbotlar bilan ishlash muammosini dolzarblashtirmoqda. Yakimanskaya I.S.ga ko'ra, mutaxassisning professional taktikligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: hissiyotlarni boshqarish qobiliyati va qiyin vaziyatlarda o'z-o'zini boshqarishni yo'qotmaslik, o'zining va boshqalarning ishiga kreativ va tanqidiy baho berish, kreativ va tanqidiy mushohada yuritib xulosa chiqarish".³

Tanqidiy fikrlash – qotib qolgan fikrlarni qabul qilmaydigan, yangi axborotlarni shaxsiy hayotiy tajribaga tatbiq yetish orqali rivojlanuvchi, baholovchi, jonli, ochiq tahlil qiluvchi fikr yurgizishdir⁴. Tanqidiy fikrlashning aksariyat ta'riflari, qiyin qarorlarni qabul qilishda oqilona, dalillarga asoslangan, uyushgan yondashuv sifatida uning g'oyasiga asoslanadi⁵.

Shuningdek adabiyotlarda tanqidiy tafakkur masalalari ham o'rganilgan bo'lib, tanqidiy tafakkur bir nechta ma'nolarga ega. Ushbu tushunchalar

³ M.Sh.Jumayeva. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktorini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent –2025

⁴ Ражабова Н.К. Булажак бoшланг'ич синф ўқитувчиларининг тадқиқотчилик кўникмаларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (ПнД) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент – 2022

⁵ Дурменов Ш.Н. Муаммоли-қидирув технологиялари талабаларнинг чақириқча харбий тайёргарликда танқидий фикрлаш ва қобилиятларини ривожлантириш стратегияси сифатида. Просеедингс оф Глобал Течноватюн 4th Интернационал Мултидисциплинарй Ссиентифис СонференсеНостед фром Парис, ФрансеҺттпс://сонференсепублисатион.ком Фебруарй 27th 2021

fikrlashning rivojlanish bosqichlarini, tahlil qilish qobiliyatini, voqelikka munosabatini ifodalaydi. Bu o'qituvchiga, talabalarning aqliy faoliyatini rag'batlantirish uchun tanqidiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasida foydalanadigan texnikasi va vositalariga bog'liq. Tanqidiy tafakkur "baholash" va "o'z-o'zini baholash", "tanqidiylik" va "o'z-o'zini tanqid qilish", "isbotlash" va "rad yetish", "tanqidiy tahlil" kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi⁶.

Yunon tilidan tarjimada "tanqid" so'zi izolyatsiya, ajralish degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilida tanqid tushunchasi boshqa ma'no kasb yetdi va ko'p o'lchovli. Tanqid tushunchasi insonning barcha aqliy faoliyatini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim tizimi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, talabalarni hayotiy muammolarni hal yetishning ijodiy yo'llarini egallashga yo'naltirish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga mo'ljallangan

Z.D.Rasulovning fikricha, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv - talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu ta'lim o'qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim hamda tarbiya jarayonini to'laligicha tahsil oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iboratdir. O'quv jarayonlarida bu turdagi ta'lim talabalarda mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi⁷.

⁶ Худойқулов Ж. "Танқидий тафаккур" тушунчаси ва унинг таълим жараёнидаги роли. Академис Ресеарч ин Эдусатионал Сиенсес Вол. 1 Но. 1, 2020 / ИССН 2181-1385. 339-347-б

⁷ Расулова З.Д. Технология дарсларида шахсга йўналтирилган таълим технологияларидан фойдаланиш / "Сиенсе анд Эдусатион" Сиенсифис Жоурнал / ИССН 2181-0842 Октябрь 2021 / Волуме 2 Иссуе 10/ 2021 йил. 471 - б

Ta'limni modernizatsiyalashtirish ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. Ta'lim oluvchi shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his yetish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog'liq funksiyalari ta'limning shaxsga yo'naltirilgan tizimi vositasida amalga oshiriladi. Bunda ta'lim oluvchi talim tizimiga moslashtirilmay, aksincha, ta'lim tizimi turli shaxsga xos barcha xususiyatlarini (erkinlikka intiluvchanlik, mustaqillik, shaxsiy fikrlarning mutloq o'ziga xos tizimga ega bo'lishi, o'z-o'zini tasdiqlash yehtiyojining mavjudligi) hisobga olgan holda, ta'lim oluvchiga uning o'ziga xosligi (individualligi)ni rivojlantirish imkonini berish, uning o'z-o'zini rivojlantirishi, namoyon yetishi uchun sharoit yaratish lozim. Zero, har qanday talaba o'ziga va faqat o'zigagina xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirish va namoyon yetishga intiladi⁸.

Ta'lim jarayonida tafakkur faoliyatlarida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mavhum fikrlash qobiliyati o'sadi, shu bilan birga, tafakkurning konkret-obrazli komponentlari saqlanib qoladi va rivojlanadi. Tanqidiy fikrlash faoliyati sezilarli darajada rivojlanadi, uning mustaqilligi va faolligi oshadi⁹.

Tanqidiy fikrlash ko'plab darajalarda ishlaydi, faktlar bilan qoniqmaydi, balki bu faktlarning sabablari va oqibatlarini ochib beradi. Tanqidiy fikrlash muloyim shubha, umumiy qabul qilingan haqiqatlarda shubha, muayyan masala bo'yicha nuqtai nazarni ishlab chiqish, mantiqiy dalillarni himoya qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash bu ajratilgan mahorat yemas, balki uning ko'plab ko'nikmalarining kombinatsiyasidir. Bu ta'lim oluvchilar ya'ni, o'qituvchiga texnikaga va talabalarga aqliy faoliyatni rag'batlantirish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida qo'llaniladigan vositalarga bog'liq. Tanqidiy fikrlash o'z ichiga "baholash" va "o'z-o'zini hurmat qilish",

⁸ Якиманская, И.С. Разработка технологии личностно-ориентированного обучения / И.С.Якиманская // Вопросы психологии. -1999. - №2 - С.31-41.

⁹ Птицына З.В. Формирование мыслительных операций на уроках математики. -М.: Просвещение, 1999. - 132 с.

“tanqid” va “o‘z-o‘zini tanqid qilish” “dalil” va “raddiya”, "tanqidiy tahlil" kabi tushuncha va jarayonlarni qamrab oladi. Tanqidiy fikrlash madaniyati ishonchli dalillash usullari va amalda qo‘llaniladigan texnikalardan iboratdir. Bularning barchasi shaxsiyatning rivojlanishiga, talabalarning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlarning ahamiyati jamoa hamkorligi asosida, axborotlarni qabul qilish, ularga o‘z munosabatini bildirish, xatolik va nomuvofiqlarini izlash, o‘z mulohazalarida xatolikka yo‘l qo‘ymaslikka intilish, o‘z tushunmovchiliklarini anglash, farqlash, aniq xulosalar chiqarishga yo‘llashdan iborat.

Ta’limning bugungi vazifasi yesa, talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan tanqidiy tafakkur orqali oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat. Tanqidiy tafakkur - bu narsa, voqea va hodisalarning alohida belgilab olingan tarzda o‘rganilishidir. Bu jarayon o‘rganilishi taqozo qilinayotgan narsa yoki hodisani aniqlashdan boshlanadi. Shundan keyin dalillarni yerkin tanlash hamda fikrlashning turli variantlarini tahlil qilishga kirishiladi. Jarayon yakunida yesa, haqqoniy fikrlashga asos bo‘ladigan dalillarga ye’tibor qilinadi. Shundan keyin talabalar aniqlangan dalillar va chiqarilgan hukmlarni o‘zaro qiyoslaydilar. Shu tariqa shaxsiy hukm chiqarish uchun asos bo‘ladigan fikrlar yig‘indisi vujudga keladi. Bunda o‘qituvchi o‘tilayotgan mashg‘ulotning maqsadini aniq qo‘yishi lozim. U talabaga nimani o‘rgatishni xohlaydi? Mazkur savolga o‘qituvchining javobi tayyor bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ta’lim-tarbiya jarayonida talaba shaxsini tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning didaktik imkoniyatlari keng bo‘lib, talabalar qanday tanqidiy fikrlashlari haqida o‘qituvchi aniq tasavvurga ega bo‘lishi zarur. O‘qituvchining bu tasavvuri talabalarni tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarning samarali tashkil yetilishini ta’minlaydi. Tanqidiy fikrlash uchun tanlab olingan obektning to‘g‘ri belgilanishi ham muhim ahamiyatga ega. Bunda

o'qituvchilarning talabalar bilan tanqidiy fikrlash ustida ishlash rejaları tuzilishi zarur. Mazkur rejalarıni tuzish uchun o'qituvchilar zarur axborotlar to'plashlari hamda ushbu ma'lumotlar bilan yaxshi qurollangan bo'lishlari talab yetiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Sh.Jumayeva. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktorini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent –2025
2. Ражабова Н.К. Бўлажак бошланг'ич синф ўқитувчиларининг тадқиқотчилик кўникмаларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (ПнД) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент – 2022
3. Дурменов Ш.Н. Муаммоли-қидирув технологиялари талабаларнинг чақириққача ҳарбий тайёргарликда танқидий фикрлаш ва қобилиятларини ривожлантириш стратегияси сифатида. Просеедингс оф Глобал Течноватион 4th Интернационал Мултидисциплинарй Ссиентифис КонференсеНостед фром Парис, ФрансеҺтпс://конференсепублисатион.сом Фебруарй 27th 2021
4. Худойқулов Ж. “Танқидий тафаккур” тушунчаси ва унинг таълим жараёнидаги поли. Асадемис Ресеарч ин Эдусатионал Ссиенсес Вол. 1 Но. 1, 2020 / ИССН 2181-1385. 339-347-б
5. Расулова З.Д. Технология дарсларида шахсга йўналтирилган таълим технологияларидан фойдаланиш / "Ссиенсе анд Эдусатион" Ссиентифис Жоурнал / ИССН 2181-0842 Остобер 2021 / Волуме 2 Иссеуе 10/ 2021 йил. 471 - б
6. Якиманская, И.С. Разработка технологии личностно-ориентированного обучения / И.С.Якиманская // Вопросы психологии. -1999. - №2 - С.31-41.

7. Птицына З.В. Формирование мыслительных операций на уроках математики. -М.: Просвещение, 1999. - 132 с.
8. Haydarova, K. (2025). Rethinking Educational Quality: The Influence of External Standards on The Credit-Modular Framework. *Nypubhouse Library for European International Journal of Pedagogics*, 5(06), 38-42.
9. Haydarova, K. (2023). Fundamentals of developing students'critical thinking skills on mother language and reading literacy lessons in primary class. *Science and innovation*, 2(B6), 224-227